

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNI SAMARALI QO'LLASH USULLARI

Jumaboyeva Sevinch

International school of finance technology and science instituti 3-kurs psixologiya
yo'nalishi 02 guruh talabasi

Ilmiy raxbar: Baqoyeva Zarina Rayimovna

Psixologiya va pedagogika kafedrası o'qituvchisi.

zbakaeva69@gmail.com Telefon:+(99890) 062-81-82

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash usullari, mavjud muammolar va ularga yechim ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilib beriladi. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinib, bu islohotlarning samaradorligi ko'p jihatdan ustoz-murabbiylar, o'qituvchilarning o'ziga, ularning shaxsiy va kasbiy fazilatlariga, kasb mahoratlariga ham bog'liqligi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, muallim, pedagog, o'quvchilar, pedagogik texnologiya, kompyuterli o'qitish texnologiyasi.

МЕТОДЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Абстрактный. В статье на основе научной литературы анализируются методы эффективного использования педагогических технологий на уроках родного языка начальных классов, существующие проблемы и пути их решения. Проанализированы реформы, реализуемые в сфере образования, и показано, что эффективность этих реформ во многом зависит от самих наставников и преподавателей, их личностных и профессиональных качеств, профессиональных навыков.

Ключевые слова: учитель, преподаватель, педагог, студенты, педагогическая технология, компьютерная технология обучения.

METHODS OF EFFECTIVE USE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN PRIMARY CLASS MOTHER LANGUAGE LESSONS

Abstract. In the article, the methods of effective use of pedagogical technologies in primary class mother tongue classes, existing problems and their solutions are analyzed on the basis of scientific literature. The reforms implemented in the field of education are analyzed and it is shown that the effectiveness of these reforms largely

depends on the mentors and teachers themselves, their personal and professional qualities, professional skills.

Key words: teacher, teacher, pedagogue, students, pedagogical technology, computer teaching technology.

Insonning tafakkuri, ilmiy salohiyati, qobiliyati va odobi ijtimoiy muhim sifat sanaladi. Bugungi kunda barcha sohalarda olib borilayotgani kabi ta'lim sohasida ham katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Zero, kelajakda Vatanimiz obod va ozod, erkin va farovon, iqtisodiy jihatdan kuchli bo'lishi ko'p jihatdan bugungi yoshlarning iqtidoriga, iste'dodiga, chuqur tafakkuri, bilimdon va ma'naviyatli bo'lishiga bog'liq. Yosh avlodning barkamol bo'lib yetishishida ona tili ta'limining ahamiyati katta bo'lib, ona tili jamiyatimizda insonning mavjudligiga va muloqotning shakllanishida ham ahamiyatlidir. Ta'lim berish yangi, samarador, takomillashgan usul va texnologiyalarni yaratish, uni tajribada sinash va shu jarayonida yanada mukammallashgan yo'nalishini hosil qilishdan iborat bo'lib mukammal dastur, takomillashgan darslik, zamonaviy usul va texnologiyalar ta'lim jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yishga ta'sir etadi. Bugungi kunda ona tili darslari oldiga qo'ygan vazifalarining asosiysi yoshlarda o'z fikrlarini mantiqiy izchil, barcha imkoniyatlari gavdalangan holda ta'sirli yetkazib berishdan iboratdir.

Ta'limni samarali tashkil etish o'qituvchidan pedagogik texnologiyalarni to'g'ri qo'llashni talab etadi. Pedagogik texnologiyalarni, aniqroq qilib aytganda, zamonaviy pedagogik texnologiyani ta'lim jarayoniga tatbiq etishda, bir tomondan, moddiy texnik bazalar zarur bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, bu kabi texnologiyalarni o'z o'rnida va samarali qo'llash lozim.

Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar ta'lim jarayonidagi moddiy texnik bazalarning yetishmovchiligini hal qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ammo, pedagogik texnologiyalarni o'z o'rnida qo'llashda ba'zi muammolar mavjud. Jumladan,

- umumiy o'rta ta'limda ko'pchilik pedagoglarning zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha yetarli bilimga ega emasligi;
- pedagogik texnologiyalardan foydalanishda tizim va izchillikning yetishmasligi;
- o'quvchilarning qiziqishlari va ularning faolligini ta'minlash borasida chuqur tahlilning yetishmasligi.

Pedagogik texnologiya tushunchasiga N.X.Avliyakov va N.N.Musayevaning "Pedagogik texnologiya" darsligida: "**Pedagogik texnologiya** – bu o'z oldiga ta'lim shakllarini maqbullashtirish vazifasini qo'yishni, texnika va inson resurslarini

va ularning o'zaro ta'siri aloqasini hisobga olgan holda butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli yondashuvidir" – deb ta'rif beriladi¹.

Bundan tashqari ayni shu kitobda zamonaviy o'qitish texnologiyalari quyidagi yetti qismga ajratib ko'rsatiladi:

1. Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar;
2. Muammoli o'qitish texnologiyasi;
3. Tabaqalashtirilgan o'qitish texnologiyasi;
4. Individuallashtirilgan o'qitish texnologiyasi;
5. Kompyuterli o'qitish texnologiyasi;
6. Ishbilarmonlik o'qitish texnologiyasi;
7. Keys-stadi texnologiyasi².

Ushbu texnologiyalar orasida bugungi zamon o'quvchilarining talablariga javob beradiganlaridan biri "Kompyuterli o'qitish texnologiyasi" hisoblanadi. XXI asr texnologiya asri hisoblanishi bugungi kunda barchaga ayon. Shu sababli o'quvchilarning qiziqishiga monand metodlar qo'llash yuqori samara beradi. Bu texnologiyadan foydalanish uchun maxsus dasturlarni bilish muhim ahamiyatga ega. Shunday dasturlardan eng soddasi bo'lgan PowerPoint dasturida ham bir qancha yangi metod va texnologiyalarni yaratish hamda ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish mumkin. Jumladan, nazorat ishlarini test shaklida olishda "Animatsiyali test" usuli yuqori samara beradi. Unda PowerPoint dasturida quyidagi ketma-ketlikni bajarishimiz lozim.

-avval testni matn shaklida yaratamiz;

-“to'g'ri” va “noto'g'ri” belgisini bildiruvchi ikonkani “icon” bo'limidan tanlab olamiz;

-ularga dasturning “Animatsiya” bo'limi imkoniyatlaridan foydalanib animatsiya (harakat) beramiz;

-“to'g'ri” belgisini bildiruvchi ikonkani to'g'ri javobning ro'parasiga joylashtiramiz;

-“noto'g'ri” belgisini bildiruvchi ikonkani boshqa barcha noto'g'ri javoblar ro'parasiga joylashtirib chiqamiz.

Natijada o'quvchi testni bajarish jarayonida o'zi to'g'ri deb belgalagan javobning ustida sichqonchanning chap tugmasini bosganda to'g'ri bo'lsa, “to'g'ri”

¹ N.X.Avliyakov, N.N.Musayeva, Pedagogik texnologiya. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. Tafakkur bo'stoni. Toshkent – 2012. 17-b.

² N.X.Avliyakov, N.N.Musayeva, Pedagogik texnologiya. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. Tafakkur bo'stoni. Toshkent – 2012. 73-b.

belgisi, noto'g'ri bo'lsa, "noto'g'ri" belgisini bildiruvchi ikonka harakatlanadi va o'quvchi ishlagan savoliga to'g'ri yoki noto'g'ri ishlaganini shu zahoti bilib oladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'zlari bilan ko'rgan narsaga qiziqishlari ko'plab axborotlarga ega bo'ladi. Shu sababli o'quvchilarga dars jarayonida harakatli metodlardan foydalanishni tavsiya qilamiz. Bu orqali o'quvchilarda har bir davrga mos rivojlanish tendensiyasiga oid ma'lumotlarni bilib boradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.X.Avliyakov, N.N.Musayeva, Pedagogik texnologiya. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. Tafakkur bo'stoni. Toshkent – 2012. 210 b.
2. K. Qosimova va boshqalar. Ona tili o'qish metodikasi. "Noshir" nashriyoti. Toshkent – 2009.
3. M.Dinoyatov, N.Muslinov, D.Ro'ziyeva, M.Usmoneva. Pedagogika – Toshkent – 2016.
4. www.pedagog.uz
5. www.natlib.uz
6. www.canva.com